# Mavzu:Erkin Vohidov lirikasi

Adabiyot

Abdukadirova M.M.



- *O`zbek xalqining sevimli shoiri Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg`ona viloyatining Oltiariq tumanida o`qituvchi oilasida tavallud topgan.*
- *Erkin Vohidov o`z bolalik xotiralari haqida shunday yozadi:,,Otam frontda ekanida,onam qishloq sovetida sekretar vazifasida ishlar,qiyinchilik bilan kun kechirar edik.Jo`xori poyasini shimib tilimni qonatganim,bolalarga qo`shilib kunjara yeganimda onam yuzimga shapaloq urgani va o`zi kechgacha yig`laganini unutmayman.*

O`ylab qarasam,bolalik xotiralarimning ko`pchiligi she`rlarga, dostonlarga ko`chgan ekan".

Erkinjon o`rta maktabni tugatgach,hozirgi O`zbekiston Milliy Universitetining filologiya fakultetida tahsil oladi.1960- yilda o`qishni tugatgach,nashriyotlarda muharrir,direktor lavozimlarida ishlaydi.

*Erkin Vohidov maktabda o`qib yurgan paytlaridayoq she`rlar yoza boshladi.Uning birinchi she`rlar to`plami esa „Tong nafasi" nomi bilan 1961-yilda chop etildi.Shundan buyon ijodkorning 40dan ziyod kitobi o`quvchilarga tortiq etildi.Uning she`rlaridan tashqari „Palatkada yozilgan doston", „Ruhlar isyoni", „Istanbul fojiasi" singari dostonlari, „Donish qishloq latifalari" nomli hajviy turkumi, „Oltin devor" komediyasi, „Shoir-u shuur" deb atalgan falsafiy to`plami xx asr o`zbek adabiyoti rivojiga katta hissa bo`lib qo`shilgan.*

*Erkin Vohidov tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. U dunyo she`riyatining yorqin vakillari S.Yesenin,A.Blok,L.Ukrainka,R.Hamzatov singari shoirlarning she`rlarini ona tilimizga tarjima qilgan.Ulug` nemis mutafakkiri Gyotening ,,Faust" asari shoir tarjimasida yanada sayqal topgan.*

*Erkin Vohidov she`riyatning ham barmoq,ham aruz,ham sarbast vaznlarida birdek ijod qiladi.U ,,O`zbekiston xalq shoiri", ,,O`zbekiston Qahramoni" degan yuksak unvonlarga sazovor bo`lgan ijodkordir.*

*Biz Erkin Vohidovning 1968-yilda yozilgan ,,O`zbegim" qasidasini o`rganamiz.*

# Xronologik jadval

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | 6 |
| | | | 8 |
| | | | 1 |
| | | | 4 |

- 1. E.Vohidov tavallud topgan yil.
- 2.,,O`zbegim” qasidasi yozilgan yil.
- 3.,,Tong nafasi” to`plami chop etilgan yil.
- 4.Gyotening ,,Faust” asari tarjima qilingan yil.

# Javoblarni tekshiring

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | 9 | 3 | 6 |
| 1 | 9 | 6 | 8 |
| 1 | 9 | 6 | 1 |
| 1 | 9 | 7 | 4 |

- 1. E.Vohidov tavallud topgan yil.
- 2.,,O`zbegim'' qasidasi yozilgan yil.
- 3.,,Tong nafasi'' to`plami chop etilgan yil.
- 4.Gyotening ,,Faust'' asari tarjima qilingan yil.

# Asarlar janrini aniqlang ?

| Asarlar nomi | Sh`er | Doston | Qasida | Komediya | Hajviy turkum | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ,,O`zbegim” | | | | | | |
| ,,Kamtarlik haqida” | | | | | | |
| ,,Oltin devor” | | | | | | |
| ,,Donishqishloq latifalari” | | | | | | |
| ,,Nido” | | | | | | |
| ,,Sadoqat” | | | | | | |
| | | | | | | |

# JAVOBLARNI TEKSHIRING

| Asarlar nomi | Sh`er | Doston | Qasida | Komediya | Hajviy turkum | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ,,O`zbegim" | | | + | | | |
| ,,Kamtarlik haqida" | + | | | | | |
| ,,Oltin devor" | | | | + | | |
| ,,Donishqishloq latifalari" | | | | | + | |
| ,,Nido" | | + | | | | |
| ,,Sadoqat" | + | | | | | |
| | | | | | | |

# O`ZBEGIM

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon,o`zbegim,

Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon,o`zbegim



So`ylasin Afrosiyob-u so`ylasin O`rxun xati,
Ko`hna tarix shodasida bitta marjon,o`zbegim.



Al-Beruniy,Al-Xorazmiy,Al-Farob avlodidan,

Asli nasli balki O`zluq,balki Tarxon, o`zbegim.









O`tdilar sho`rlik boshingdano`ynatib shamshirlarin,
Necha qoon,necha sulton,necha ming xon,o`zbegim.

Tog`laring tegrangda go`yo bo`g`ma ajdar bo`ldi-yu,
Ikki daryo-ikki chashming,chashmi giryon,o`zbegim.

Qaysari Rum nayzasidan bag`rida dog` uzra dog`,
Chingiz-u Botu tig`iga ko`ksi qalqon,o`zbegim.

Yog`di to`rt yondin asrlar boshinga tiyri kamon,
Umri qurbon,mulki taroj,yurti vayron,o`zbegim.

Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,
Sen-Muqanna,sarbador-sen,erksevar qon,o`zbegim.

Sen na zardusht,sen na buddiy,senga na otash sanam,
Odamiylik dini birla toza iymon o`zbegim.

Ma`rifatning shu`lasiga talpinib zulmat aro,
Ko`zlaringdan oqdi tunlar kavkabiston,o`zbegim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug`bek Ko`ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk qo`ydi narvon o`zbegim.

Mir Alisher na`rasiga aks sado berdi jahon
She`riyat mulkida bo`ldi shoh-u sulton o`zbegim.




Mirzo Ulug'bek

# So`zlarni izohlang !

| So`zlar | Izohi |
|---|---|
| Pomir | ? |
| Tiyaonshon | ? |
| Afrosiyob | ? |
| O`rxun xati | ? |
| O`zluq, Tarxon | ? |
| Muqanna | ? |
| Chingiz, Botu | ? |
| Pushkin,Bayron | ? |

# Izohlarni tekshiring

| So`zlar | Izohi |
| --- | --- |
| Pomir | Eng baland tog` nomi |
| Tiyaonshon | Eng baland tog` nomi |
| Afrosiyob | Samarqanddagi qadimiy xaroba yodgorliklari |
| O`rxun xati | Yenisey daryosi bo`yidan topilgan qadimgi turkiy tosh bitik |
| O`zluq, Tarxon | O`zbek urug`lari nomi |
| Muqanna | Erk uchun kurashgan qo'zg'olonchilardan biri |
| Chingiz, Botu | Mo'g'ul bosqinchilari |
| Pushkin,Bayron | Pushkin rus, Bayron ingliz shoirlari |

# O`zbek deganda kimni va nimalarni tushunasiz ?



# Qasida haqida tushuncha

- QASIDA-mashhur tarixiy shaxslar va voqealarni madh etuvchi tantanavor uslubdagi she`r.Qasida xuddi g`azaldek qofiyalanadi.
- Adabiyotimizda bir qancha qasida janrida yozilgan asarlar mavjud.Jumladan,A.Navoiyning Husayn Boyqaro sharafiga yozilgan ,,Hiloliya"qasidasi,
- M.Shayxzodaning ,,Toshkentnoma",E.Vohidovning ,,O`zbegim",A.Oripovning ,,O`zbekiston" kabi qasidalari bor.

# NAZARIY MA`LUMOT

- Badiiy asarda mashhur tarixiy shaxslar,badiiy asar qahramonlari kabilarga murojaat qilish TALMEH san`ati deyiladi.
- Talmeh-ortga nazar tashlash ma`nosini bidiradi.

# Uyga vazifa

Qasidani ifodali yod olish.

Qasida yuzasidan qisqacha matn tuzish.